

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI OROL MUAMMOSINI HAL QILISHDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIK

**Xudaynazarov Abror Baxodir o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Davlat va fuqarolik  
jamiyati institutlari boshqaruvi 2- kurs magistranti

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Orol muammosini hal qilish uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari va imzolangan shartnomalar, deklaratsiyalar xususida ma'lumotlar yoritib berilgan. Bundan tashqari Orol muammosini oldini olish uchun tuzilgan Orolni qutqarish jamg'armasi va uning faoliyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston – Markaziy Osiyo, Xalqaro hamjamiyat, BMT, Markaziy Osiyo, Orolni qutqarish jamg'armasi, deklaratsiya.

### COOPERATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WITH CENTRAL ASIAN COUNTRIES IN SOLUTION OF THE ISLAND PROBLEM

**Abstract:** This article provides information on the relations of the Republic of Uzbekistan with the Central Asian countries and signed agreements and declarations to solve the Aral problem. In addition, there is information about the Island Rescue Fund and its activities, which was established to prevent the Island problem.

**Key words:** Uzbekistan - Central Asia, International Community, UN, Central Asia, Island Rescue Fund, declaration.

O'zbekiston - Markaziy Osiyo atrof-muhitni himoya qilish sohasida hududiy hamkorlik jarayonida faol ishtirok etmoqda. U tabiiy boyliklardan foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanishni koordinatsiyalash masalalarini hal qilish uchun, Orolni qutqarish Xalqaro Fondi (Davlat rahbarlarini 1993 yilgi Qozog'iston, Qizil O'rda shahrida qaroriga asosan) barqaror rivojlanish bo'yicha Davlatlararo Komissiyasi va Davlatlararo suv xo'jaligi koordinatsion Komissiyasini tuzishda tashabbuskorlardan biridir. Hozirgi



davrga kelib regionda o'zaro munosabatlar, tabiatni muhofaza qilish va iqtisodiy ikki tomonlama va ko'p tamonlama kelishuv sababli rivojlanmoqda. 1993 yil Markaziy Osiyoni beshta davlat Prezidentlari, birinchilardan bo'lib, Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash va ekologik sog'lomlashtirish, Orol dengizi havzasini ekologik yaxshilash qat'iy harakati rejasi shartnomasiga imzo qo'yildi. Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha, Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro hamjamiyati tomonidan ekologik masalalari bo'yicha quyidagi deklaratsiyalar imzolandi: Nukus deklaratsiyasi, Olmata deklaratsiyasi, Ashxobod deklaratsiyasi, Dushanbe deklaratsiyasi. Unda aytilishicha mamlakat ekologik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish masalasida, bir shakldagi yondashuvlarni ishlab chiqish, olamshumul va mintaqaviy ekologik muammolarni yechishda, Xalqaro tashkilotlar va davlatlarni, Markaziy Osiyo davlatlarini qo'llashga chaqiradi. Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik korpuslari ishtirokida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston orasida, atrof muhitni muhofaza etish va tabiiy boyliklardan to'g'ri foydalanish sohasida, shuningdek, ikki yoqlama O'zbekiston va Qozog'iston orasida xamda, O'zbekiston va Qirg'iziston orasida kelishuv imzolandi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston orasida, hamkorlikda ajarilgan rekultivatsiya, konrudalari chiqindilarini joylashtirishda, xalqaro chegaralarga ta'siri masalasida, hamda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va bunga qo'shilgan Tojikiston orasida, Sirdaryo suv havzasini energiya va suv manbaalaridan foydalanishda hamkorlik bitimlari imzolandi<sup>1</sup>.

Orol inqirozining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatli ta'sirini, xususan, puxta o'ylangan, aniq manzilli va tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan loyihalarni amalga oshirish orqali kamaytirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Endilikda Orolni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy manbalardan foydalanish to'g'risida milliy maruza. 1988-2007-yillar nashri. – B. 251.



sog'lomlashtirish muammosi jahon xalqlari diqqat markazida bo'lib, Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazilib ularda istiqbolli dasturlar ishlab chiqilmoqda. 1995-yil sentabr oyida Nukus shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida bo'lib o'tgan «O'rolbo'yi mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti» mavzusidagi xalqaro anjuman ham aynan yuqorida ta'kidlangan muammolarga bag'ishlangan edi.

Bu anjumanda Markaziy Osiyodagi besh davlat prezidentlari, hukumatlar rahbarlari bilan birga o'nlab xalqaro tashkilotlar va 35 davlatning vakillari ishtirok etib, o'lkada yuzaga kelgan xavfli ekologik halokatni bartaraf etish masalalarini o'rganib chiqdilar. Anjuman ishida 300 dan ortiq mutaxassislar, diplomatlar, vazirlar va davlat rahbarlari qatnashib, ular Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lgan ushbu asosiy masalalarni muhokama qildilar.

Unda Nukus deklaratsiyasiga imzo chekildi va istiqbolda olib boriladigan siyosiy va amaliy ishlar borasida aniq majburiyatlar olindi, boshlang'ich mablag'lar belgilandi.

2019-yil 24-avgust kuni Turkmanboshi shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Prezidentlar avval tor doirada uchrashuv o'tkazdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov ishtirok etdi<sup>2</sup>.

Majlisda jamg'arma faoliyatini takomillashtirish, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash, suv resurslarini muvofiqlashtirgan holda boshqarish, bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlarning hamkorligini mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratildi.

---

<sup>2</sup> Nazarov A.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish., Darslik. – Toshkent., 2020. – B. 148-149.



Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari hamkorligida Orol dengizi havzasida ekologik inqirozga barham berish va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida tuzilgan mintaqaviy tashkilotdir. Ta'sischi davlatlar ushbu jamg'armaga galma-gal uch yil muddatga raislik qiladi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari navbati bilan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Prezidenti etib saylanadi. 2017-yildan 2019-yilgacha jamg'armaga Turkmaniston raislik qilmoqda.

Ta'kidlash joiz, mazkur sammit jamg'armaning 2009-yili Toshkentda o'tgan tarixiy majlisidan so'ng tashkil etilayotgani bilan ahamiyatlidir. Ta'sischi davlatlar rahbarlarining Toshkent uchrashuvida mintaqada ekologik halokatning oldini olish yo'lida muhim sa'y-harakatlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olingan edi.

Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat o'nglab bo'lmaydigan holatga kelgan, uning salbiy ta'siri tobora kengayib borayotgan bugungi sharoitda davlat rahbarlarining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi hamfikrliligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tgan davrda OQXJ doirasida mintaqada murakkab suv xo'jaligi masalalarini hal etish, suv taqsimoti, Orol dengizi havzasida suv resurslarini birgalikda boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik borasida qator shartnomalar hamda bitimlar imzolandi<sup>3</sup>.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlariga tegishli masala, Amudaryo va Sirdaryo suv manbalaridan foydalanish, o'rta va quyi oqimlarda suv ifloslanishini oldini olishdir. Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy hamkorligini, Xalqaro Orolni qutqarish fondi huzurida tuzilgan, barqaror rivojlanish Davlatlararo Komissiyasi faoliyatida, Markaziy Osiyo davlatlarini ishtirok etishi misolida ko'ramiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

<sup>3</sup> Qarang: <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/orolni-qutqarish-xalqaro-jamgarmasi-sammiti-boshlandi.html>



1. Nazarov A.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish., Darslik. – Toshkent., 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy manbalardan foydalanish to‘g‘risida milliy maruza. 1988-2007-yillar nashri.
3. O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi. - Toshkent, 1998.
4. YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Komissiyasi 1994-2009.
5. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/orolni-qutqarish-xalqaro-jamgarmasi-sammiti-boshlandi.html>
6. <http://www.lex.uz/>
7. <http://www.uza.uz/>

